



**“JINOYAT VA JAZO” ASARIDA BOSH QAHRAMON  
TAQDIRINING BADIY TALQINI**

**SARVINOZ ABDURAHMONOVA**

*Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada rus adabiyotining ustunlaridan biri Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning modernizmga ilk tamal toshini qo‘ygan asari "Jinoyat va jazo"dagi bosh qahramon Raskolnikov hayoti, o‘y-xayollari, qilmishlari muhokama qilinadi. Binobarin, asar g‘oyasi, uning davr mavzusi, davrni ochib bergenligi, undagi ijtimoiy muhit haqida spz boradi.

**Kalit so‘zlar:** jinoyat, modernizm, qahramon, ideallik, g‘oya, jazo.

**Annotation:** This article discusses the life, thoughts, and actions of the main character Raskolnikov in *Crime and Punishment*, one of the foundational works of Russian literature by Fyodor Mikhailovich Dostoevsky, which laid the groundwork for modernism. The article also addresses the central idea of the novel, its relevance to its time, its depiction of the era, and the social environment portrayed within it.

**Keywords:** crime, modernism, character, idealism, idea, punishment.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются жизнь, размышления и поступки главного героя Родиона Раскольникова из произведения *Преступление и наказание* — одного из ключевых трудов русской литературы Фёдора Михайловича Достоевского, заложившего основы модернизма. Также анализируются идея произведения, актуальность тематики для своего времени, её отражение эпохи и показ социальной среды.

**Ключевые слова:** преступление, модернизм, герой, идеализм, идея, наказание.

O‘ziga xos tasvir uslubi, yozuvchining sezgir qalbi hamda go‘zal va ibratlari asarlari bilan butun dunyoga tanilgan rus yozuvchilaridan biri Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asari kitob muxlislari orasida, ayniqsa, talabalar orasida qiziqish va munozaralarga sabab bo‘lgan va bo‘lib kelmoqda. Asarning bosh



qahramoni Raskolnikov jinoyatni oddiy ehtiyoj tufayli qilganmi yoki bu ishni tubanlik bilan bajarganmi? Bu savollar hali-hanuz muhokama qilinadi va javobi turlicha bo‘lib kelmoqda.

To‘g‘ri, asarda Raskolnikov tomonidan bajarilgan qora ish — jinoyat — ochiq ko‘rinadi. Lekin bu ishning bajarilishi ma’qul edimi? Har birimizga sir emaski, ba’zi hodisalar va ularning sabablari turli odamlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Negaki, hammamiz bu hayotda o‘z haqiqatimiz bilan yashaymiz. Shuning uchun ham “Jinoyat va jazo” asarida asosiy voqeani tashkil qilgan Raskolnikovning kampirni o‘ldirgani ham o‘zi uchun to‘g‘ri ish deb hisoblanadi.

Avvalo, Raskolnikov yuridik fakultetida o‘qiyotgan, ammo moddiy qiyinchilik tufayli universitetni tark etishga majbur bo‘lgan talaba. So‘nggi paytlarda esa uning qashshoqligi nihoyatda og‘irlashadi. U bir kursdosh do‘stining maslahatiga quloq tutib, sudxo‘r kampir Alenaga qimmathli buyumlarini garovga qo‘yadi. Kampirga uning his-tuyg‘ulari umuman qiziq emas edi . Hattoki, otasidan yodgor - tilla soatini ham garovga topshirishga majbur bo‘ladi, kampir esa bunsoatga ham beparvolik bilan nazar soladi. Bu Raskolnikovning hissiyotlarini junbushga keltiradi. Uning miyasidagi ma’shum niyatni alangalatib yuboradi. Shu boisdan u jinoyatni amalga oshirishni rejalashtiradi.

Raskolnikov kampirni o‘ldiradi, biroq ko‘pchilik Raskolnikov bu ishni faqat moddiy manfaat uchun qilmagan deb hisoblaydi. Agar jinoyat faqat moddiy maqsad uchun bo‘lganida, uni oqlashning keragi ham, hojati ham qolmasdi. U kampirni o‘ldiragnidan umuman vijdonini koyitmeydi, aksincha, shunchaki ruhiy tushkunlikka tushadi. Chunki u bu jinoyat orqali jamiyatdaadolatsizlikka qarshi noroziligini bildirgan. Shu jihatdan, Raskolnikov o‘zini ideal inson deb bilgan. Asarda o‘ziga xos xarakter egasi sifatida xayolimizda gavdalangan Marmeladov tilidan aytilgan jumlalar fikrimizning yorqin isbotidir: "...kambag'allik ayb emas, biroq yo‘qchilik illat, siz kambag'alchilikda hali o‘zingizning tug‘ma olivjanob fazilatlaringizni saqlab qolgan bo‘lasiz, yo‘qchilikda esa ularni hech qachon va hech kim saqlab qola bilmaydi"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> “Jinoyat va jazo”. F.Dostoyevskiy. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent-1977. 18-19b



Rossiyaning o'sha davrdagi ijtimoiy muhiti, kambag'allik, tartibsizlik, jamiyatdagi og'ir sharoitlar Raskolnikovni jinoyatga undaydi. Asarda Raskolnikov obrazi orqali yozuvchi ruhiy kechinmalarini, jamiyatdagiadolatsizlik va erksizlikni ko'rsatadi. Bu orqali u faqat badiiy matn yozmagan, balki davr muammosini ham yuksak darajada ifodalagan. Xususan, asar 1866-yilda yozilgan va o'sha davr muhitini, ijtimoiy turmush tarzini to'liq yoritgan. Sho'rolar davrida qonunga itoat qilgan insonlar va jinoyatchilar bir xil darajada jazolangan. Shu bois Raskolnikov va u bilan birga yashayotgan odamlar o'z faoliyatlarini to'g'ri deb bilganlar. Raskolnikov ham ushbu siyosiy va ijtimoiy o'yinni, jamiyat tanazzulini chuqr anglab yetgan holda, o'zini bu illatga qarshi chiqqan va o'z ishini adolatli deb hisoblagan. Bu esa yana bir bor shuni ko'rsatadiki, jinoyatni ham har kim har xil talqin qilishi mumkin.

Asarda Alina Ivanovna naqadar tuban, sudxo'r va jinoiy javobgarlikka tortilishga mahkum kimsa bo'lsa-da, uning va u kabilarning ochiq-oydin faoliyat olib borayotgani, hatto bundan politsiya xodimlarining xabardorligi o'sha davrda rus jamiyatida siyosiy tuzumning rivojlanmagani va davlat qonunlarining kuchsizligini ro'yi- rost ohib bergen. "Nur borki, soya bor"- deganlaridek, har qanday jamiyatda, har qanday davrda ham jinoyatchilar, sudxo'rlar uchraydi, lekin ularning oshkora faoliyati davlat siyosatiga va taraqqiyotiga putur yetkazadi ,shubhasiz, Raskolnikov ham ushbu siyosiy o'yinlarni, jamiyat tanazzulini chuqr anglagan holda o'zi bu illatga qarshi chiqadi va o'zining bu ishini adolatli deb hisoblaydi. Bundan tashqari, yana bir holatni kuzatish mumkinki, asarda RASKOLNIKOV qanchalar qobiliyatli, izlanuvchan, tirishqoq va ilmga chanqoq bo'lsa-da kambag'alligi tufayli o'qishni to'xtatishga majbur bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, davlat, hukumat va amaldorlar uchun talabaning o'qishni tashlashi hech bir qiziq hodisa emas, ularning aybi va eng katta kamchiligi ularni bilim, taraqqiyot qiziqtirmaydi, yosh va ilmli kadrni qo'llab-quvvatlash, moddiy yordam berish o'rniga Alina Ivanovna kabi jinoyatchilarga yo'l ohib beradi va ularning erkin faoliyatiga to'sqinlik qilmaydi. Shuning uchun ham Raskolnikov haq edi.Binobarin, unga hayot hech qanday imkoniyat, yordam qo'lini cho'zmaydi va u choraszlikdan bu ishga qo'l uradi, bundan tashqari, Raskolnikov



faqat o'zi uchun bu ishga qo'l urmadi, balki bu ishi bilan onasi va singlisi Dunyani ayanchli taqdirdan qutqarib qolgan edi. Voqealar rivojidan ma'lum bo'ladiki, Dunya uning o'qishi, tirikchiligi uchun har doim pul jo'natib turgan edi, afsuski bu pullar orqasida qancha haqorat, tahqirlash, g'ururning sinishi bor edi.

Ayniqsa, Dunya akasi Raskalnikov uchun o'zini qurbon qilmoqchi bo'ladi, akamga foydasi tegsin, uning kelajagi ham ta'minlansin degan niyatda o'zi sevmasada, Lujin ismli insonga turmushga chiqmoqchi bo'ladi. Bular bari Raskalnikov miyasiga mixdek azob beradiki, u agar men kampirning pullariga erishsam, onam va singlimni ham farovon hayotga olib chiqaman deb ishonadi. Hayotda eng og'riqli va azob beruvchi hodisa yaqinlaringning o'zini sen uchun qurbon qilishi va sening qo'lingdan hech narsa kelmasligidir. Raskalnikov ruhiyatiga ham bu hodisalar salbiy ta'sir o'tkazgach bu jinoyatni sodir etadi. Muxtasar qilib aytganda, dunyoda hech kim yomon bo'lib tug'ilmaydi Atrof- muhit, jamiyat, taqozo kabi omillar ularning shunday shakllanishiga sababchidir. Raskalnikovga keladigan bo'lsak, biz uni shu jinoyati tufayligina nohaq deya olmaymiz. Dur sadaf ichida bo'lganidek, uning tashqi olamida qilgan yomon qilmishlari talaygina bo'lsa-da yuragida dur-u gavhardek go'zal qalbi bor edi.

Tarozining ikkinchi pallasiga nazar tashlasak, Raskolnikovning qilmishini qoralovchi va undan nafratlanuvchi kitobxonlarni ham uchratishimiz mumkin. Bu bir tomondan olib qaraganda haq, to'g'ri. Chunki inson nima bo'lgan taqdirda ham odam o'ldirmasligi, o'zligini yo'qotmasligi shart. Eng pok din Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham, xristianlarning diniy kitobi Injilda ham eng og'ir gunoh odamkushlik ekani ta'kidlab o'tilgan. Raskolnikov bunga rioya qilmadi, o'zi kabi tirik jonning hayotiga nuqta qo'ydi. Hech bir jinoyat jazosiz qolmaganidek Raskalnikov ham asar yakunida sakkiz yilga qamoq jazosiga hukm etiladi. Asar nomida aytilgani kabi jinoyat ham, jazo ham to'la ifodalab beriladi.

Mening fikrimcha, Raskolnikovni faqat qora yoki oq deyishimiz noto'g'ri, chunki uning ba'zi ishlari yaxshi yoki yomonlik chegaralarini buzib tashlaydi va barcha kitobxonlarni o'yga qoldiradi. Asar so'ngida barcha aybiga o'zi iqror bo'lgan va o'z oyog'i bilan politsiyaga borgan Raskalnikovning hayoti, ayanchli taqdiri, o'y-



xayollari butun bir kitob bo'lib, bu kitob o'quvchilar tomonidan iliq kutib olingan va doim shunday bahs, munozaralar sababchisi bo'lib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, bu kitob boshqa asarlar singari umid- baxsh sadolar bilan tugamaydi, lekin Raskalnikovning jazoga tortilishi u uchun intiho emas, ibtido bo'lib qoladi. Hayot murakkab, u turli tekislik va o'nqir -cho'nqirlardan iborat, ularni sabot bilan yengib o'tish har bir insonning oldidagi eng dolzarb vazifadir. Zero, yozuvchi "Jinoyat va jazo" asari orqali har bir yoshni to'g'ri tanlov qilishga, ularning holatidan ko'ra ayanchliroq ahvoldagi insonlarni ko'rsatib o'z hayotidan shukur qilishga chorlab qoladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Baxtin Mixail. Dostoyevskiy poetikasining muammolari (Problems of Dostoevsky's Poetics). Moskva: Xudozhestvennaya Literatura, 1972.
2. Martinsen Deborah A. Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" asariga o'quvchi qo'llanmasi (Dostoevsky's "Crime and Punishment": A Reader's Guide). London: Bloomsbury Academic, 2022.
3. Abdurahmonova Gulorom va Hafizova Feruza. "«Jinoyat va jazo» asarida qahramon ruhiyatining badiiy ko'lami." Eurasian Journal of Academic Research, Samarqand, 2022.
4. To'rayeva Muattar va Xushvaqtova Maftuna. "«Jinoyat va jazo» – axloqiy tanlov va inson ruhiyati tahlili." Modern Education and Development Journal, Farg'ona, 2024.
5. Quronov, Do'stxon. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr, 2010.